XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHI QARORI

XALÍQ DEPUTATLARÍ ELLIKQALA RAYONLÍQ KEŃESINIŃ SHESHIMI

2023 - yil 24 - may VI-58-62-13-194-K/23 Ellikqal'a tuman hokimligi

Ellikqal'a tumani hududidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to'g'risida"gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2023 yil 04 apreldagi 27-13-194-F/23-sonli farmoyishiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi *Samarqand* hududlararo bo'linmasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko'ra umumiy perimetri **1085601 metr,** umumiy maydoni **540 128 gektar** ekanligi aniqlandi

Jumladan:

Bo'ston shaharining umumiy perimetri 14782 metr ekanligi, umumiy maydoni 1086 gektar;

"Saxtiyon" shaharchasining umumiy perimetri 13742 metr ekanligi, umumiy maydoni 240 gektar;

- Aqchako'l ovulining umumiy perimetri 51269 metr ekanligi, umumiy maydoni 6884 gektar;

- Amirobod ovulining umumiy perimetri 32168 metr ekanligi, umumiy maydoni 2541 gektar;

- Tozabog' ovulining umumiy perimetri 72720 metr ekanligi, umumiy maydoni 11416 gektar;

- Sarabiy ovulining umumiy perimetri 24350 metr ekanligi, umumiy maydoni 2240 gektar;

- Sharq yulduzi ovulining umumiy perimetri 49812 metr ekanligi, umumiy maydoni 8185 gektar;

- Qizilqum ovulining umumiy perimetri 452418 metr ekanligi, umumiy maydoni 446003 gektar;

- Qirqqizobod ovulining umumiy perimetri 52854 metr ekanligi, umumiy maydoni 8106 gektar ekanligi aniqlandi;

- Qilichinoq ovulining umumiy perimetri 30317 metr ekanligi, umumiy maydoni 3699 gektar ekanligi aniqlandi;

- Navoiy ovulining umumiy perimetri 53518 metr ekanligi, umumiy maydoni 11294 gektar ekanligi aniqlandi;

- Guliston ovulining umumiy perimetri 54886 metr ekanligi, umumiy maydoni 11767 gektar ekanligi aniqlandi;

- Guldursun ovulining umumiy perimetri 50236 metr ekanligi, umumiy maydoni 4754 gektar ekanligi aniqlandi;

- Ellikqal’a ovulining umumiy perimetri 81165 metr ekanligi, umumiy maydoni 16163 gektar ekanligi aniqlandi;

-Do’stlik ovulining umumiy perimetri 51364 metr ekanligi, umumiy maydoni 5749 gektar ekanligi aniqlandi.

Ellikqal’a tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda Bo’ston shahri, shaharcha va har bir ovullarning chegaralari ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Ellikqal’a tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari I.Yunusovning taklifini tinglab muhokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari I.Yunusovning Ellikqal’a tumani hududidagi Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi *Samarqand* hududlararo bo‘linmasi tomonidan Ellikqal’a tumanidagi shaharcha va ovullarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Bo‘ston shahar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan komissiya tarkibining 2023-yil “18” apreldagi 25-sonli yig‘ilish bayoni hamda tuman adliya bo‘limining 2023-yil 22 may kungi № 5-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ellikqal’a tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorni tasdiqlash uchun Qoraqalpog‘iston Respubliksi Jo‘qorgi Kengesidan so‘ralsin.

4. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish va doimiy komissiya yig‘ilishlarida muhokama qilib borish Xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Kenjaev zimmasiga yuklansin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **S.S.Avezov**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023 yil 24 maydagi
VI-58-62-13-194-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ellikqal’a tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

№	Shahar va shaharchalar hamda ovullar nomi	Chegara uzunligi (*metr*)	Yer maydoni (*gektar*)
1	Aqchako‘l ovuli	51269	6884
2	Amirobod ovuli	32168	2541
3	Tozabog‘ ovuli	72720	11416
4	Sarabiy ovuli	24350	2240
5	Sharq yulduzi ovuli	49812	8185
6	Qizilqum ovuli	452418	446003
7	Qirqqizobod ovuli	52854	8106
8	Qilichinoq ovuli	30317	3699
9	Navoiy ovuli	53518	11294
10	Guliston ovuli	54886	11767
11	Guldursun ovuli	50236	4754
12	Ellikqal'a ovuli	81165	16163
13	Do‘stlik ovuli	51364	5749
14	Bo’ston shahar	14782	1086
15	Saxtiyon shaharchasi	13742	240
	Tuman bo‘yicha jami	**1085601**	**540128**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023 yil 24 maydagi
VI-58-62-13-194-K/23-son qaroriga
2-ilova

Ellikqal’a tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi

